Ushbu ikki normativ sistemaning amaliy to'qnashuv nuqtasi ta'lim DXSh shartnomalarida investor zimmasiga yuklatilgan sifat majburiyatlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Shartnomada belgilangan pedagogik ko'rsatkichlarga (savodxonlik darajasi, bitiruvchilar ko'rsatkichi, o'quvchilar kontingentining saqlanishi) erisha olmaslik holatlarida davlat moliyaviy sanksiyalar qo'llash yoki xizmat to'lovidan ushlab qolish (*availability deduction, performance deduction*) huquqini talab qiladi. Shuningdek, *Oxus Gold v. Republic of Uzbekistan* (2015) ishi doirasidagi arbitraj amaliyoti shuni ko'rsatadiki, davlat tomonidan moliyaviy

sharoitni bir tomonlama oʻzgartirish harakati arbitraj tomonidan FET (adolatli va teng munosabat) tamoyilini buzish sifatida baholanishi uchun asos boʻlishi mumkin.

Mazkur muammo faqat nazariy xarakterga ega emas. Liberiyada 93 ta maktab xususiylashtirilgan boʻlib, ayrim provayderlar taʼlim sifatiga zarar yetkazuvchi harakatlarni amalga oshirgan boʻlsa-da, amaldagi shartnomaviy mexanizm ushbu harakatlarni huquqiy jihatdan “noqonuniy” deb tasniflash imkonini bermadi. Panjobda esa sifat talablari shartnomada mavjudligiga qaramay, ularning bajarilishini tekshiruvchi mustaqil organ boʻlmagani sababli ushbu majburiyatlar “ijro etilmaydigan” (*non-justiciable*) xususiyat kasb etgan. Yaʼni ular shartnomada aks etgan boʻlsa-da, amalda daʼvo predmeti boʻla olmaydi.

Tadqiqotning asosiy gipotezasi quyidagicha: taʼlim DXSh shartnomalarida sifat majburiyatlari institutsional boʻshliq tufayli amalda ijro etilmaydi; ularni majburiy ijro etishga uringan davlat esa paradoksal ravishda FET tamoyilini buzgani uchun xalqaro arbitrajga tortilish xatarini oʻz zimmasiga oladi. Ushbu gipotezadan kelib chiqib, tadqiqot quyidagi uch savolga javob izlaydi:

Birinchidan, taʼlim DXSh shartnomalarida sifat majburiyatlari nima sababdan huquqiy jihatdan ijro etilmaydigan holatga keladi?

Ikkinchidan, davlatning sifatni taʼminlash yoʻlidagi aralashuvi qaysi hollarda FET standartini buzish sifatida kvalifikatsiya qilinadi?

Uchinchidan, ushbu kolliziyani bartaraf etadigan institutsional yechim qanday tuzilishga ega boʻlishi lozim?

Ushbu kolliziya Oʻzbekiston sharoitida oʻta dolzarb, chunki Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi “Davlat-xususiy sheriklik toʻgʻrisida”gi OʻRQ–537-sonli Qonuni DXSh mexanizmini joriy etgan boʻlsa-da, sifatni oʻlchash va baholashning mustaqil institutsional tizimini nazarda tutmagan (Republic of Uzbekistan, 2019). Oʻzbekiston maktab taʼlimi infratuzilmasida DXSh modelini kengaytirish boʻyicha aniq siyosiy yoʻnalish mavjud boʻlib, bu sifat nazorati masalasini yaqin yillarda amaliy ahamiyat kasb etuvchi muammoga aylantiradi.

Adabiyotlar tahliliga koʻra, sifat majburiyatlarining nazariy asosini Hart, Shleyfer va Vishni tomonidan ishlab chiqilgan nomukammal shartnomalar nazariyasi tashkil etadi (Hart et al., 1997). Mazkur modelga koʻra, xizmat koʻrsatish funksiyasi xususiy operatorga berilganda operator sifatga zarar yetkazadigan xarajatlarni tejashga intiladi, chunki shartnoma xizmat sifatining barcha koʻrsatkichlarini toʻliq qamrab ololmaydi. Taʼlim sohasida ushbu nomukammallik yanada chuqurroq namoyon boʻladi: oʻquvchi muvaffaqiyati oʻqituvchi malakasi, oilaviy muhit va ijtimoiy omillar kabi koʻplab oʻzgaruvchilarga bogʻliq. Shartnomada ushbu oʻzgaruvchilarni toʻliq aks ettirish texnik jihatdan imkonsiz. Demak, har qanday sifat shartlari doimo nomukammal boʻlib qoladi.

Kroufurd, Herz va Todd yuzdan ortiq tadqiqotni koʻrib chiqib, xususiy taʼlimning samaradorlik ustunligi DXSh loyihalariga har doim ham koʻchmasligi haqidagi xulosaga kelgan (Crawfurd et al., 2024). Mualliflarning taʼkidlashicha, xususiy maktablar oʻz ustunligini sifat boʻyicha hisobot berish majburiyatidan xoli sharoitda koʻrsatadi; DXSh shartnomasi ularga sifat boʻyicha qatʼiy majburiyat yuklagach, bu samaradorlik pasayadi. Mazkur kuzatuv nomukammal shartnomalar nazariyasini empirik jihatdan tasdiqlaydi hamda sifat majburiyatlarining shartnomada mavjudligi va ularning amalda bajarilishini taʼminlash oʻrtasidagi jiddiy tafovutni ochib beradi.

Empirik darajada institutsional boʻshliqning keng tarqalganligi bir qator hududiy tadqiqotlarda qayd etilgan. Romero, Sandefur va Sandholtz Liberiyada oʻtkazgan rasmiy eksperiment natijasida 93 ta maktab xususiy provayderlar boshqaruviga oʻtgach oʻrtacha 0,18 standart ogʻish hajmida akademik oʻsish kuzatilganini, biroq ayrim provayderlar shartnomaviy jihatdan ruxsat etilgan, lekin jamoat manfaatiga zid harakatlarni amalga oshirganini aniqladi (Romero et al., 2020). Malik Panjob Taʼlim jamgʻarmasi (PEF) modeli misolida davlat sifat koʻrsatkichlarini nazorat qilish uchun zarur texnik salohiyatga ega boʻlmay turib, sifat majburiyatlarini xususiy sheriklar zimmasiga yuklashi mazkur majburiyatlarni amalda ixtiyoriy holatga keltirishini koʻrsatdi (Malik, 2010). Tvinomuhvezi va Herman Ugandadagi USE (*Universal Secondary Education*) dasturini, Barrera-Osorio va boshqalar esa Sinddagi PPRS dasturini oʻrganib, ayni xulosaga keldi: sifatni oʻlchaydigan mustaqil mexanizm boʻlmasa, majburiyatning ijro etilgani yoki etilmagani boʻyicha huquqiy xulosaga kelish imkonsiz boʻlib qoladi (Twinomuhwezi & Herman, 2020; Barrera-Osorio et al., 2022).


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

Mazkur maqola sifat majburiyatlarining huquqiy tabiati, sud tartibida koʻrib chiqishning imkonsizligi (*non-justiciability*) muammosi va Oʻzbekistondagi institutsional boʻshliq tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro arbitraj pretsedentlari bilan bogʻliq huquqiy kolliziyalar muhokama etiladi, sifat adjudikatsiyasi instituti va OʻRQ–537-sonli qonunga (Republic of Uzbekistan, 2019) aniq oʻzgartishlar taklif etiladi.

**Metodlar**

*1. Tadqiqot obyekti va predmeti*

Tadqiqotning obyekti ta'lim sohasidagi DXSh shartnomalarini tuzish va ijro etish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar majmuidir. Tadqiqotning predmeti esa mazkur shartnomalardagi sifat majburiyatlarining huquqiy tabiati, ularning ijro etilish *(justiciability*) darajasi hamda xalqaro investitsiya huquqidagi adolatli va teng munosabat standarti bilan oʻzaro nisbatidir. Tadqiqot doirasi ta'lim sohasi bilan cheklangan boʻlib, energetika, transport va sogʻliqni saqlash kabi boshqa DXSh sohalari faqat qiyosiy maqsadlarda jalb etiladi.

*2. Tadqiqot metodlari va manbalar bazasi*

Tadqiqotda ikki asosiy metod qoʻllandi. Birinchisi qiyosiy-huquqiy metod boʻlib, u xalqaro investitsiya arbitraji pretsedentlarini hamda turli yurisdiksiyalardagi ta'lim DXSh amaliyotini oʻzaro qiyoslashga xizmat qildi. Ikkinchisi huquqiy-dogmatik metod boʻlib, u OʻRQ–537-sonli qonun normalarini (Republic of Uzbekistan, 2019) va shartnomaviy majburiyatlar tuzilishini tahlil qilishda ishlatildi. Tadqiqotning manbalar bazasini xalqaro arbitraj qarorlari, *Scopus* va *Web of Science* bazalariga kiruvchi empirik tadqiqotlar hamda Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari tashkil etadi.

*3. Arbitraj ishlarini tanlash mezonlari (case selection)*

Maqola tahlilida toʻrtta xalqaro investitsiyaviy arbitraj ishi asos qilib olindi. Ishlarni tanlashda quyidagi mezonlar qoʻllandi: birinchidan, ishning investor-davlat nizolarini hal qilish (ISDS) amaliyotida pretsedent ahamiyatiga ega boʻlishi; ikkinchidan, ishda shakllangan huquqiy standartning (FET, "toza qoʻllar", davlatning tartibga solish huquqi) ta'lim DXSh shartnomalariga toʻgʻridan toʻgʻri tatbiq etilishi mumkinligi; uchinchidan, kamida ikki ishning bevosita Oʻzbekistonga taalluqli boʻlishi. Shu mezonlarga koʻra "Metal-Tech", "Oxus Gold" (Oʻzbekiston boʻyicha) hamda *AES v. Hungary* va *Vivendi v. Argentina* (qiyosiy standartlar boʻyicha) *ishlari* tanlandi. Mazkur ishlar bevosita ta'lim sohasiga tegishli boʻlmasligi mumkin, biroq ulardagi huquqiy standartlar sohaviy chegaralarga ega emasligi sababli ta'lim DXSh konteksti uchun ham amal qiladi.

**Natijalar**

*1. Shartnomaviy sifat majburiyatlarining ontologik muammosi*

Ta'lim DXSh shartnomasidagi sifat majburiyatini amalda ijro etish uchun uchta asosiy shartning kumulyativ mavjudligi talab etiladi:

– majburiyatning aniq va oʻlchanadigan darajada belgilanishi;

– uni bajarish holatini mustaqil tekshirish imkoniyati;

– bajarilmaganlik uchun javobgarlik mexanizmining huquqiy aniqligi.

Amaliyotda ta'lim DXSh shartnomalarida ushbu shartlardan kamida ikkitasi mavjud boʻlmaydi.

*Birinchi muammo* – oʻlchanadigan aniqlik. Ta'lim sifatini "oʻquvchilar yutuqlari koʻrsatkichi" sifatida belgilash texnik jihatdan mumkin boʻlsa-da, ushbu koʻrsatkichga ta'sir qiluvchi aksariyat omillar (oila daromadi, ijtimoiy muhit va boshqalar) investor nazoratidan tashqaridadir. Hart, Shleyfer va Vishni konsepsiyasiga koʻra, bu "verifikatsiya muammosi"ni keltirib chiqaradi: uchinchi tomon (sud yoki arbitraj) umumiy koʻrsatkichdan aynan investorning hissasini ajratib koʻrsata olmaydi (Hart et al., 1997).

*Ikkinchi muammo* – mustaqil tekshirish institutining yoʻqligi. Tadqiq etilgan barcha hududlar, xususan, Liberiya, Panjob, Uganda va Sind tajribasida sifatni mustaqil baholovchi va xulosasi huquqiy majburiy kuchga ega boʻlgan organ mavjud emas. Bu boʻshliq tizimli xarakterga ega boʻlib, mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga emas, balki institutsional dizayndagi konseptual kamchiliklarga bogʻliq.

*Uchinchi muammo* – javobgarlik mexanizmining noaniqligi. Ta'lim DXSh shartnomalarida keng qoʻllanadigan toʻlovlarni ushlab qolish (*payment deduction*) mexanizmi, ya'ni umumiy toʻlovdan samaradorlik va mavjudlik chegirmalarini ayirish formulasi, amalda sifat uchun chegirma (*Dperf*) qismini hisoblashda muammoga

duch keladi. Agar mustaqil va obyektiv baholash natijasi mavjud boʻlmasa, chegirma miqdori nolga teng boʻladi va sifat boʻyicha shartnomaviy majburiyat texnik jihatdan mavjud boʻlsa-da, amalda oʻz kuchini yoʻqotadi.

*2. Majburiyatlarning sud tartibida koʻrib chiqilishi imkonsizligi (non-justiciability)*

Huquqiy jihatdan koʻrib chiqishning imkonsizligi (*non-justiciability*) tushunchasi an'anaviy ravishda konstitutsiyaviy huquq sohasida qoʻllansa-da, xalqaro investitsiyaviy arbitrajda u kengroq ma'no kasb etadi. Mazkur tushuncha shartnomada mavjud boʻlgan muayyan majburiyatning ijrosini obyektiv mezonlar asosida aniqlash texnik jihatdan imkonsiz boʻlgan hollarda sud yoki arbitraj uni mazmunan qaror uchun asos qila olmasligini anglatadi.

Ta'lim sohasidagi DXSh shartnomalarida ushbu muammo bir necha darajada namoyon boʻladi. Faktual darajada ta'lim sifatini oʻlchaydigan unifikatsiyalangan tizim mavjud emas. Protsessual darajada esa hakamlik sudi ta'lim natijalari boʻyicha da'voni koʻrayotganda tayanadigan aniq yuridik standartga ega boʻlmaydi. Nazariy jihatdan ta'lim sifatini shartnomaviy majburiyatga aylantirish ijtimoiy tizimlarning oʻz ichki avtonom mantigʻiga ega ekanligi hamda ularning huquqiy kategoriyalarga toʻliq boʻysunmasligi bilan bogʻliq muammolarni keltirib chiqaradi (Teubner, 2011).

*3. OʻRQ–537-sonli qonun va Oʻzbekiston amaliyotidagi institutsional boʻshliq*

Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi "Davlat-xususiy sheriklik toʻgʻrisida"gi OʻRQ–537-sonli Qonuni mamlakatda DXSh mexanizmlarining huquqiy asosi boʻlib xizmat qiladi. Mazkur Qonun shartnomaviy majburiyatlar tarkibi, tomonlarning huquqlari va loyihalarni baholash tartibini belgilab bergan (Republic of Uzbekistan, 2019). Oʻz navbatida, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-apreldagi 259-sonli qarori (Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan (2020) loyihalarni amalga oshirish tartibini yanada konkretlashtirgan.

Shunga qaramay, amaldagi qonunchilikda ta'lim DXSh loyihalarida sifat majburiyatlarini mustaqil tekshirish va baholash mexanizmi nazarda tutilmagan. Qonunning 16-moddasi xizmat sifati talablarini bajarish majburiyatini xususiy sherik zimmasiga yuklasa-da, ushbu sifatning oʻlchov standartlari, tekshirish tartibi va bajarilmaganlik faktini qayd etish usullari huquqiy jihatdan tartibga solinmagan. Mazkur boʻshliq sifat majburiyatlarini amalda da'vo predmeti sifatida qoʻllash imkoniyatini cheklaydi.

Oʻzbekiston ta'lim sohasida DXSh modeli endigina shakllanayotgan bosqichda boʻlib, hozircha sohaga oid sifat indikatorlari, shartnomaviy nazorat amaliyoti yoki nizolar statistikasi boʻyicha yagona ochiq ma'lumotlar bazasi shakllanmagan. Ushbu holatning oʻzi institutsional boʻshliqning bilvosita dalilidir: sifatni tizimli oʻlchaydigan organ mavjud boʻlmagani uchun tegishli statistik baza ham yuzaga kelmagan. Benade (2025) Avstraliya tajribasi misolida davlat "jamoat manfaati" mezoni asosida sifatni nazorat qilish vakolatini saqlab qolgan taqdirda ham, agar ushbu nazorat mustaqil organ tomonidan yuritilmasa, davlatning oʻzi nizo tomoniga aylanib qolishini koʻrsatadi. Biygautan va Klegg esa Saudiya Arabistoni tahlilida ta'lim DXSh muvaffaqiyati uchun parallel ravishda tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi institutsional bazalarni rivojlantirish lozimligini ta'kidlaydi (Biygautane & Clegg, 2024).

**Muhokama**

*1. FET standarti va uning ta'lim kontekstidagi ahamiyati*

Adolatli va teng munosabat (*Fair and Equitable Treatment*, FET) standarti investitsiyaviy bitimlarda kafolatlangan markaziy himoya mexanizmidir. Ushbu standart investorning qonuniy kutishlarini muhofaza qilishni hamda davlat tomonidan kamsitishga yoʻl qoʻyilmasligini ta'minlaydi. Masalan, *Oxus Gold plc v. Republic of Uzbekistan* (2015) *ishi* doirasida tribunal soliq rejimidagi kutilmagan oʻzgarishlarni aynan FET tamoyilining buzilishi deb topgan.

Ta'lim sifatini tartibga solish jarayonida mazkur standart oʻziga xos huquqiy ziddiyatni keltirib chiqaradi. Investorning qonuniy kutishlari toʻlov tizimining barqarorligiga tayanadi. Agar davlat ta'lim sifatini baholash tartibini shartnomada koʻzda tutilmagan shaklda oʻzgartirib, investorga nisbatan yangi moliyaviy sanksiyalar qoʻllasa, bu FET standarti doirasida investorning huquqlarini buzish sifatida baholanishi xavfi tugʻiladi.

*2. "Metal-Tech" pretsedenti va "toza qoʻllar" doktrinasi*

*Metal-Tech Ltd. v. Republic of Uzbekistan* (2013) ishi boʻyicha arbitraj xulosalari DXSh loyihalari uchun fundamental ahamiyatga ega. Mazkur ishda

tribunal investitsiyani kiritish jarayonida korrupsiyaga yoʻl qoʻyilgani aniqlansa, u xalqaro huquqiy himoyadan mahrum boʻlishi, ya'ni "toza qoʻllar" (*clean hands*) doktrinasi qoʻllanishini tasdiqladi.

Ta'lim DXSh amaliyotida tender jarayonlarining murakkabligi korrupsiya xatarlarini keltirib chiqarishi mumkin. "Metal-Tech" pretsedenti shuni koʻrsatadiki, agar shartnoma tuzish jarayonida qonunbuzarlik aniqlansa, investor FET yoki ekspropriatsiya asosida da'vo qoʻyish imkoniyatini butunlay yoʻqotadi. Bu esa shaffof raqobat muhitini yaratish nafaqat axloqiy, balki qat'iy huquqiy zaruriyat ekanligidan dalolat beradi.

*3. AES v. Hungary: davlatning tartibga solish huquqi va investor manfaatlari muvozanati*

*AES Summit Generation Limited v. Hungary* (2010) ishi doirasida tribunal davlatning oqilona ommaviy siyosat yuritish suveren huquqini e'tirof etgan. Agar koʻrilayotgan choralar kamsituvchi xarakterga ega boʻlmasa va aniq ijtimoiy maqsadni koʻzlasa, buni FET buzilishi deb baholab boʻlmasligi qayd etilgan.

Ushbu pretsedent ta'lim sohasida davlatga tartibga solish imkonini (*regulatory space*) beradi. Davlat ta'lim standartlarini oshirish va yangi metodologik normalar joriy etish huquqiga ega. Basharti ushbu harakatlar qonuniy asoslangan va bashorat qilinadigan boʻlsa, xalqaro arbitraj buni investor huquqlarining buzilishi deb tan olmaydi. Biroq shartnomaning dastlabki arxitekturasida koʻzda tutilmagan yangi sifat talablarining bir tomonlama kiritilishi ushbu suveren himoya doirasidan tashqarida qolishi mumkin.

*4. Vivendi v. Argentina: shartnomaviy talablarning xalqaro maqomga koʻtarilishi*

*Compañía de Aguas del Aconquija S.A. and Vivendi Universal S.A. v. Argentine Republic* (2002) ishi doirasida Bekor qilish boʻyicha maxsus qoʻmita prinsipial pozitsiyani belgiladi: davlatning muayyan harakati bir vaqtning oʻzida ham xususiy-huquqiy shartnomani, ham xalqaro investitsiyaviy bitim (BIT) majburiyatlarini buzishi mumkin. Bunday holatda investor milliy sud tizimini chetlab oʻtib, toʻgʻridan toʻgʻri xalqaro arbitrajga murojaat qilish huquqiga ega boʻladi.

Ta'lim DXSh shartnomalari kontekstida mazkur pretsedentning amaliy xavfi shundaki, agar davlat ta'lim sifati pastligi haqidagi asos bilan shartnomaviy toʻlovlarni cheklasa va buni shartnoma qoidalari emas, balki bir tomonlama idoraviy qaror yoki yangi normativ hujjatga asoslantirsa, investor Vivendi logikasiga tayanib, ushbu nizoning maqomini BIT darajasiga koʻtara oladi. Bu esa davlat uchun shartnomaviy nizoning xalqaro investitsiyaviy nizoga aylanishi kabi jiddiy yuridik riskni keltirib chiqaradi.

*5. Huquqiy kolliziyaning strukturaviy tahlili*

Yuqorida tahlil qilingan pretsedentlarni umumlashtiruvchi qiyosiy tasnif 1-jadvalda keltirilgan. Jadval har bir ishdan kelib chiquvchi huquqiy muammoni hamda uning Oʻzbekiston ta'lim DXSh amaliyoti uchun amaliy xulosasini koʻrsatadi.

*1-jadval*

**Xalqaro arbitraj pretsedentlari va ularning Oʻzbekiston uchun xulosasi**

| Arbitraj ishi | Huquqiy muammo | Oʻzbekiston uchun xulosa |
|---|---|---|
| *Metal-Tech v. Uzbekistan* | Investitsiya kiritishda korrupsiya aniqlansa, investor himoyadan mahrum boʻladi ("toza qoʻllar") | Tender shaffofligi huquqiy zaruriyat; korrupsiya investorni ham, davlatni ham himoyasiz qoldiradi |
| *Oxus Gold v. Uzbekistan* | Soliq/moliyaviy rejimni bir tomonlama oʻzgartirish FET buzilishi sifatida baholandi | Sifat bahonasida toʻlovni bir tomonlama cheklash FET xatarini yuzaga keltiradi |
| *AES v. Hungary* | Oqilona, kamsitmaydigan tartibga solish FET buzilishi emas | Davlat sifat standartini oshirishi mumkin, ammo asoslangan va bashorat qilinadigan tarzda |
| *Vivendi v. Argentina* | Shartnoma buzilishi bir vaqtda BIT buzilishi darajasiga koʻtarilishi mumkin | Idoraviy qarorga asoslangan sanksiya nizoni xalqaro arbitrajga olib chiqadi |

Jadvaldan koʻrinadiki, kolliziyaning toʻliq tuzilishi toʻrt bosqichda namoyon boʻladi.

*Birinchi* bosqich: shartnomada sifat majburiyatlari rasman aks ettirilgan, biroq ularni baholashning mustaqil mexanizmi mavjud emas, natijada majburiyatlar huquqiy jihatdan ijro etilmaydigan (*non-justiciable*) holatga keladi.

*Ikkinchi* bosqich: davlat sifat koʻrsatkichlari taʼminlanmadi, degan xulosa bilan moliyaviy sanksiyalar qoʻllaydi yoki toʻlovlarni bir tomonlama tartibda cheklaydi.

*Uchinchi* bosqich: investor ushbu harakatni qonuniy kutishlarning buzilishi va FET standarti kolliziyasi sifatida baholab, ICSID yoki UNCITRAL arbitrajiga daʼvo kiritadi; shartnomaviy nizo xalqaro darajaga koʻtariladi.

*Toʻrtinchi bosqich:* davlat oʻz harakatlarini *AES v. Hungary* ishiga xos "suveren tartibga solish huquqi" bilan himoya qilishga urinadi, biroq baholash tartibidagi noaniqlik va kamsitmaslik mezonining buzilishi bu himoyani zaiflashtiradi.

Oqibatda har ikki taraf yuridik jihatdan noqulay vaziyatda qoladi: davlat sifatni talab qilolmaydi, investor esa uni taʼminlash uchun ragʻbat sezmaydi. Mazkur "huquqiy tanglik" (*legal deadlock*) taʼlim DXSh loyihalarining eng xavfli institutsional kamchiligi hisoblanadi.

**Xulosa**

*1. Sifat adjudikatsiyasi institutining normativ modeli*

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, mavjud huquqiy kolliziyani faqatgina shartnoma matnini takomillashtirish orqali hal etib boʻlmaydi. Ziddiyatning oʻzagi shartnoma matnida emas, balki shartnomaviy sifat majburiyatlarining ijrosini taʼminlaydigan mustaqil institutsional baza mavjud emasligidadir. Shu bois yechim ham institutsional xarakterga ega boʻlishi lozim. Maqolada sifat adjudikatsiyasi instituti (*Quality Adjudication Body*, QAB) tushunchasini joriy etish taklif qilinadi.

Taklif etilayotgan organning normativ modeli quyidagi parametrlar bilan belgilanadi. Tashkiliy maqom jihatidan QAB taʼlim vazirligi va DXShni rivojlantirish agentligidan funksional mustaqil boʻlgan, lekin davlat tomonidan tashkil etiladigan ixtisoslashgan organ sifatida shakllantiriladi; uning aʼzolari tarkibiga taʼlim sifatini baholash boʻyicha mutaxassislar, huquqshunoslar va mustaqil ekspertlar kiritiladi. Moliyalashtirish jihatidan QAB davlat byudjetidan ajratilgan maxsus mablagʻ hamda DXSh loyihalaridan undiriladigan nazorat yigʻimi hisobidan taʼminlanadi; bu uning ham davlatdan, ham investordan moliyaviy mustaqilligini kafolatlaydi. Qarorlar kuchi jihatidan QABning sifat baholash toʻgʻrisidagi xulosasi shartnomada oldindan kelishilgan tartibda majburiy kuchga ega boʻladi va toʻlov chegirmasini hisoblash uchun yagona huquqiy asos sifatida tan olinadi.

QABning mavjudligi huquqiy kolliziyani quyidagicha bartaraf etadi: davlat sifat chegirmasini oʻzboshimchalik bilan emas, balki QABning obyektiv xulosasiga tayanib hisoblaydi, bu esa davlatning "bir tomonlama aralashuvi" xususiyatini yoʻqotadi. *AES v. Hungary* pretsedentida tribunal "oqilona ommaviy siyosat" mezonini eʼtirof etgani kabi QAB xulosasi asosida qoʻllangan chegirmalar ham xalqaro arbitrajda FET buzilishi sifatida baholanishi ehtimolini keskin kamaytiradi. Shuningdek, Vivendi xatarlari ham minimallashadi: agar sanksiya shartnomada belgilangan mustaqil mexanizm doirasida qoʻllansa, davlat shartnomaviy tartibdan chetga chiqmagan, balki uni ijro etgan hisoblanadi.

*2. OʻRQ–537-sonli qonunga taklif etilayotgan modda loyihasi*

Mazkur nazariy modelni amaliyotga tatbiq etish maqsadida OʻRQ–537-sonli qonunni quyidagi mazmundagi yangi modda bilan toʻldirish taklif etiladi (2-jadval).

Ushbu modda loyihasi Barrera-Osorio va boshqalarning Pokiston tajribasidan chiqargan xulosalariga – moliyaviy ragʻbatlantirishni oʻquvchi yutuqlariga bogʻlash zaruriyatiga toʻla mos keladi hamda sifatni obyektiv oʻlchaydigan organsiz bunday bogʻlashning imkonsizligini huquqiy jihatdan hal qiladi.

Mazkur tadqiqot taʼlim sohasidagi DXSh loyihalarida oʻziga xos huquqiy kolliziya – sifat majburiyatlarining huquqiy jihatdan ijro etilmasligi (*non-justiciability*) hamda investorning FET standarti doirasidagi himoyasi toʻqnashuvini ochib berdi. Ushbu muammo davlatni oʻz taʼlim siyosatini amalga oshirishda cheklab qoʻysa, investorni majburiyatlarni bajarishda ragʻbatsiz qoldiradi.

Liberiya, Panjob, Uganda va Sind tajribasi shuni isbotlaydiki, sifat ijrosini taʼminlovchi institutlar yaratilmas ekan, har qanday DXSh modeli kutilgan samarani bermaydi. *Metal-Tech* va *Oxus Gold* ishlari esa Oʻzbekistonning xalqaro investitsiyaviy arbitraj xatarlariga bevosita taʼsirchanligini koʻrsatadi. Oʻzbekistonda OʻRQ–537-sonli qonunga sifat adjudikatsiyasi institutini kiritish shunchaki texnik tuzatish emas, balki taʼlim DXSh huquqiy rejimining fundamental arxitekturaviy nuqsonini bartaraf etishga qaratilgan strategik zaruriyatdir.


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

*2-jadval*

**O‘RQ–537-sonli Qonunga kiritilishi taklif etilayotgan o‘zgartishlar loyihasi**

| Norma | Taklif etilayotgan mazmun |
|---|---|
| 16-moddaga 1-qism (yangi) | Ta’lim sohasidagi DXSh shartnomalarida sifat majburiyatlarining bajarilishi mustaqil organ – Sifat adjudikatsiyasi organi tomonidan unifikatsiyalangan mezonlar asosida baholanadi |
| 16-moddaga 2-qism (yangi) | Sifat standartlarini o‘lchash metodologiyasi ta’lim sohasidagi vakolatli vazirlik hamda DXShni rivojlantirish agentligi tomonidan birgalikda tasdiqlanadi |
| 16-moddaga 3-qism (yangi) | Shartnomaviy to‘lovdan sifat uchun chegirma faqat Sifat adjudikatsiyasi organining xulosasi asosida hisoblanadi. Davlat organining bir tomonlama qarori chegirma uchun mustaqil asos bo‘la olmaydi |

## REFERENCES

AES Summit Generation Limited and AES-Tisza Erőmű Kft. v. Hungary, ICSID Case No. ARB/07/22 (2010). *Award*. International Centre for Settlement of Investment Disputes.

Barrera-Osorio, F., Blakeslee, D. S., Hoover, M., Linden, L., Raju, D., & Ryan, S. P. (2022). Delivering education to the underserved through a public-private partnership program in Pakistan. *The Review of Economics and Statistics, 104*(3), 399–416. https://doi.org/10.1162/rest_a_01002

Bashar, T., Fung, I. W. H., Jaillon, L. C., & Wang, D. (2021). Major obstacles to public-private partnership (PPP)-financed infrastructure development in China. *Sustainability, 13*(12), Article 6718. https://doi.org/10.3390/su13126718

Benade, L. (2025). School infrastructure procurement by public-private partnership: In the public interest? *Policy Futures in Education, 23*(6), 1217–1232. https://doi.org/10.1177/14782103251328165

Biygautane, M., & Clegg, S. (2024). Public-private partnerships for school infrastructure development: International review and recommendations for Saudi Arabia. *Journal of Infrastructure, Policy and Development, 8*(6), Article 3672. https://doi.org/10.24294/jipd.v8i6.3672

Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. (2020, April 26). On improving the procedure for implementing public-private partnership projects *(Resolution No. 259).* https://lex.uz/docs/-4798603

Compañía de Aguas del Aconquija S.A. and Vivendi Universal S.A. v. Argentine Republic, ICSID Case No. ARB/97/3 (2002). *Decision on Annulment.* International Centre for Settlement of Investment Disputes.

Crawfurd, L., Hares, S., & Todd, R. (2024). The impact of private schools, school chains and PPPs in developing countries. *World Bank Research Observer, 39*(1), 97–123. https://doi.org/10.1093/wbro/lkad005

Diaz-Rios, C., & Urbano-Canal, N. (2021). Publicly subsidized private schools in developing countries: Lessons from Colombia. *Education Policy Analysis Archives, 29*, Article 34. https://doi.org/10.14507/epaa.29.5647

Hart, O., Shleifer, A., & Vishny, R. W. (1997). The proper scope of government: Theory and an application to prisons. *The Quarterly Journal of Economics, 112*(4), 1127–1161. https://doi.org/10.1162/003355300555448

Malik, A. B. (2010). *Public-private partnerships in education: Lessons learned from the Punjab Education Foundation.* Asian Development Bank.

*Metal-Tech Ltd. v. Republic of Uzbekistan*, ICSID Case No. ARB/10/3 (2013). Award. International Centre for Settlement of Investment Disputes.

*Oxus Gold plc v. Republic of Uzbekistan.* (2015). Final Award*.* Permanent Court of Arbitration.

Republic of Uzbekistan. (2019, May 10). *On public-private partnership (Law No. LRU-537).* https://lex.uz/docs/4329272

Romero, M., Sandefur, J., & Sandholtz, W. A. (2020). Outsourcing education: Experimental evidence from Liberia. *American Economic Review, 110*(2), 364–400. https://doi.org/10.1257/aer.20181478

Teubner, G. (2011). “And if I by Beelzebub cast out devils…”: An essay on the diabolics of network failure. *German Law Journal, 12*(1), 37–47.

Twinomuhwezi, I. K., & Herman, C. (2020). Critical success factors for public-private partnership in universal secondary education: Perspectives and policy lessons from Uganda. *International Journal of Educational Administration and Policy Studies, 12*(2), 133–146. https://doi.org/10.5897/IJEAPS2020.0656

# YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
# ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
# REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

**2026-yil maxsus son**

VOLUME 10 / SPECIAL ISSUE / 2026

DOI: HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS.2026.10.SI.